

ISSN 3060-544X

2026-yil 7-son

# ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

*ilmiy-nazariy jurnal*

BUXORO 2026



# ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR

*ilmiy-nazariy jurnal*

## СОВРЕМЕННОЕ ОБЩЕСТВО И ИННОВАЦИИ

*научно-теоретический журнал*

## MODERN SOCIETY AND INNOVATIONS

*scientific-theoretical journal*

**№ 7-son, 1-qism 2026-yil**

*Jurnal 2025-yilda tashkil etilgan.  
Jurnal 1 yilda 12 marta nashr etiladi.*

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2025-yil 24-sentyabrdagi 375/5-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning disertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.**

## MUNDARIJA:

Mualliflar	Maqola sarlavhasi	Yo'nalishi	Bet
<i>A'ZAMOVA XUMOROY ILYOSJONOVNA</i>	MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING SO'Z-MANTIQ TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH SHARTI SIFATIDA ERTAKLAR SYUJETLARIDAGI TRIGGERLARDAN FOYDALANISH	PSIXOLOGIYA	3
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТРИГГЕРОВ В СЮЖЕТАХ СКАЗОК КАК УСЛОВИЕ РАЗВИТИЯ СЛОВЕЧНО-ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	THE USE OF TRIGGERS IN FAIRY TALE PLOTS AS A CONDITION FOR THE DEVELOPMENT OF VERBAL-LOGICAL THINKING IN PRESCHOOL CHILDREN		
<i>AXROROV VORIS YUNUSOVICH</i>	PEDAGOGIK FAOLIYATDA KONFLIKTLI HOLATLARDA BO'LAJAK PEDAGOGLARNING PSIXOLOGIK CHIDAMLILIGINI SHAKLLANTIRISH OMILLARI	PSIXOLOGIYA	8
	ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ В КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЯХ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	FACTORS INFLUENCING THE FORMATION OF PSYCHOLOGICAL RESILIENCE OF FUTURE TEACHERS IN CONFLICT SITUATIONS WITHIN PEDAGOGICAL ACTIVITY		
<i>MAXMUDOVA ZULFIYA MEXMONOVNA</i>	QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KASBIY KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	13
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ СОТРУДНИКОВ СЛУЖБЫ ОХРАНЫ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR ENHANCING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF SECURITY SERVICE PERSONNEL		
<i>SUVONOVA LOBARXON ISLOM QIZI</i>	RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI MASHG'ULOTLARD FOYDALANISHDA PEDAGOGIK DIZAYNING AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	25
	ЗНАЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ДИЗАЙНА ПРИ ИСПОЛЬЗОВАНИИ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В АУДИТОРНЫХ И ВНЕАУДИТОРНЫХ ЗАНЯТИЯХ		
	THE IMPORTANCE OF INSTRUCTIONAL DESIGN IN THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES IN CLASSROOM AND EXTRACURRICULAR LEARNING ACTIVITIES		

<i>RAXIMBAYEVA GULYORA ULUGBEKOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY IDENTIFIKATSIYA SHAKLLANISHINI O'RGANISHDA QO'LLANILADIGAN PSIXODIAGNOSTIK METODIKALAR TASNIFI	PSIXOLOGIYA	30
	КЛАССИФИКАЦИЯ ПСИХОДИАГНОСТИЧЕСКИХ МЕТОДИК, ИСПОЛЪЗУЕМЫХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ИДЕНТИФИКАЦИИ У СТУДЕНТОВ		
	CLASSIFICATION OF PSYCHODIAGNOSTIC METHODS USED IN STUDYING THE FORMATION OF STUDENTS' SOCIAL IDENTIFICATION		
<i>MASHARIPOVA XADICHA JAVLON QIZI</i>	MATERIALSHUNOSLIK ASOSLARINI O'QITISHDA INTERFAOL METODLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI	PEDAGOGIKA	36
	ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ОСНОВ МАТЕРИАЛОВЕДЕНИЯ		
	THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS AND DIGITAL TECHNOLOGIES IN TEACHING THE FUNDAMENTALS OF MATERIALS SCIENCE		
<i>ISABAYEV ABDUKARIM KOMILJONOVICH</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KOGNITIV FAOLLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	40
	ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ КОГНИТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING COGNITIVE ACTIVITY IN PRESCHOOL CHILDREN		
<i>AHMADOVA MAHBUBA SHAVKAT QIZI</i>	ALISHER NAVOIY IJODIDAGI DO'STLIK VA SADOQAT G'OYALARINI BOSHLANG'ICH TA'LIMDA TARBIYAVIY VOSITA SIFATIDA QO'LLASH	PEDAGOGIKA	45
	ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИДЕЙ ДРУЖБЫ И ПРЕДАННОСТИ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ КАК СРЕДСТВА ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ		
	THE USE OF THE IDEAS OF FRIENDSHIP AND LOYALTY IN ALISHER NAVOI'S WORKS AS AN EDUCATIONAL TOOL IN PRIMARY EDUCATION		
<i>MAHMARAIMOV JASUR JUMANAZAROVICH</i>	BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK BOSQICHIDA SHUG'ULLANUVCHI BADMINTONCHILARGA TEXNIK-TAKTIK XARAKAT ELEMENTLARINI O'RGATISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	51
	МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ ТЕХНИКО-ТАКТИЧЕСКИМ ДЕЙСТВИЯМ БАДМИНТОНИСТОВ НА ЭТАПЕ НАЧАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ		
	METHODOLOGY FOR TEACHING TECHNICAL AND TACTICAL MOVEMENT ELEMENTS TO BADMINTON PLAYERS AT THE INITIAL TRAINING STAGE		

<i>RAXIMOVA FAZILATXON ATABEKOVNA</i>	TA'LIM JARAYONIDA BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIGA O'RTA OSIYO ALLOMALARINING ILMIY MEROSINI O'RGATISHNING DIDAKTIK TA'MINOTINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI	PEDAGOGIKA	58
	ВОЗМОЖНОСТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ДИДАКТИЧЕСКОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ ОБУЧЕНИЯ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НАУЧНОМУ НАСЛЕДИЮ УЧЕНЫХ СРЕДНЕЙ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	OPPORTUNITIES FOR IMPROVING THE DIDACTIC SUPPORT OF TEACHING FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS ABOUT THE SCIENTIFIC HERITAGE OF MIDDLE SCHOOL SCIENTISTS IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>САБИРОВА ШАХЛО</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA KOMMUNIKATIV FAOLLIKNI DIDAKTIK O'YINLAR VOSITASIDA RIVOJLANTIRISH	PEDAGOGIKA	63
	РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ АКТИВНОСТИ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА СРЕДСТВАМИ ДИДАКТИЧЕСКОЙ ИГРЫ		
	DEVELOPING THE COMMUNICATIVE ACTIVITY OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH DIDACTIC GAMES		
<i>MASHARIPOVA SAIDA RAHIMOVNA</i>	OTA-ONALARNING EMOTSIONAL INTELLEKTI VA FARZANDLARNING SHAXSIY KAMOLOTIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	67
	ВЛИЯНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНОГО ИНТЕЛЛЕКТА РОДИТЕЛЕЙ НА ЛИЧНОСТНОЕ СТАНОВЛЕНИЕ ДЕТЕЙ		
	PARENTS' EMOTIONAL INTELLIGENCE AND ITS IMPACT ON CHILDREN'S PERSONAL DEVELOPMENT		
<i>TOSHEV ALISHER TEMIROVICH</i>	ШАХМАТ O'YINLARI ASOSIDA BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQIY FIKRLASH VA INTELLEKTUAL RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	71
	МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ ЛОГИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ И ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОГО РАЗВИТИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ НА ОСНОВЕ ШАХМАТНОЙ ИГРЫ		
	METHODOLOGY FOR DEVELOPING LOGICAL THINKING AND INTELLECTUAL GROWTH IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS BASED ON CHESS GAMES		
<i>DAVLATOVA ZEBO HAYDAROVNA</i>	МАКТАБГАЧА YOSHDAGI BOLALARDA RAQAMLI TECHNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING HISSIY-IRODAVIY RIVOJLANISHGA PSIXOLOGIK TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	76
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЭМОЦИОНАЛЬНО-ВОЛЕВОЕ РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА		
	THE PSYCHOLOGICAL IMPACT OF DIGITAL TECHNOLOGY USE ON THE EMOTIONAL AND VOLITIONAL DEVELOPMENT OF PRESCHOOL CHILDREN		

<i>JUMAYEV NODIR ZAYNIDDINOVICH</i>	O'SMIRLARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION PEDAGOGIK TECHNOLOGIYALARNING PSIXOLOGIK AHAMIYATI	PSIXOLOGIYA	83
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ КРЕАТИВНОГО МЫШЛЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	THE PSYCHOLOGICAL SIGNIFICANCE OF INNOVATIVE PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING AMONG ADOLESCENTS		
<i>TESHABOEV AKRAMJON YULDASHEVICH</i>	TALABALARNING O'QUV JARAYONIDAGI QIYINCHILIKLARINI ANIQLASH VA KORREKSIYALASHDA PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA TECHNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH METODIKASI	PEDAGOGIKA	90
	МЕТОДИКА ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ДИАГНОСТИКИ ПРИ ВЫЯВЛЕНИИ И КОРРЕКЦИИ ТРУДНОСТЕЙ СТУДЕНТОВ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ		
	METHODOLOGY FOR USING PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC TECHNOLOGIES TO IDENTIFY AND CORRECT STUDENTS' LEARNING DIFFICULTIES IN THE EDUCATIONAL PROCESS		
<i>АСЛАМКУЛОВА ПАРВИНА ЖАМШИД КИЗИ</i>	SUN'IY INTELLEKT DAVRIDA BILIMNING ISHONCHLILIGI MUAMMOSI: FALSAFIY VA GNOSEOLOGIK TAHLIL	PEDAGOGIKA	98
	ПРОБЛЕМА ДОСТОВЕРНОСТИ ЗНАНИЯ В ЭПОХУ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА: ФИЛОСОФСКО-ГНОСЕОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ		
	THE PROBLEM OF KNOWLEDGE RELIABILITY IN THE ERA OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: A PHILOSOPHICAL AND EPISTEMOLOGICAL ANALYSIS		
<i>TURSUNKULOVA SHODIYA</i>	TALABALARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	105
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У СТУДЕНТОВ		
	PSYCHOLOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING EMOTIONAL STABILITY IN STUDENTS		
<i>TOHIROVA FERUZA</i>	BO'LAJAK TIBBIYOT XODIMLARIDA KASBIY IDENTIKLIKNI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOY-PSIXOLOGIK MUHITNING TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	110
	ВЛИЯНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ У БУДУЩИХ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ		
	THE INFLUENCE OF THE SOCIO-PSYCHOLOGICAL ENVIRONMENT ON THE FORMATION OF PROFESSIONAL IDENTITY IN FUTURE HEALTHCARE PROFESSIONALS		

<i>ESHPU LATOVA SHOXISTA</i>	O‘SMIRLARDAGI AGRESSIV XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHIDA OILAVIY VA PEDAGOGIK MUHITNING PSIXOLOGIK TA‘SIRI	PSIXOLOGIYA	119
	ПСИХОЛОГИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ СЕМЕЙНОЙ И ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ СРЕДЫ НА ФОРМИРОВАНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	THE PSYCHOLOGICAL INFLUENCE OF FAMILY AND EDUCATIONAL ENVIRONMENTS ON THE FORMATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS		
<i>ERGASHEV IBODULLA</i>	“O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASINING JAMIYAT IDEOSFERASINI YANGILASHDAGI O‘RNI	PEDAGOGIKA	126
	РОЛЬ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030» В ОБНОВЛЕНИИ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА		
	THE ROLE OF THE “UZBEKISTAN – 2030” STRATEGY IN RENEWING THE IDEOLOGICAL SPHERE OF SOCIETY		
<i>TUXTASHEVA RUSHANA SADULLAYEVNA</i>	OLIIY TA‘LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA‘LIM JARAYONIDA INTERFAOL MULOQOTNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI	PEDAGOGIKA	131
	РОЛЬ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНТЕРАКТИВНОГО ОБЩЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ДИСТАНЦИОННОГО ОБУЧЕНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ		
	THE ROLE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN DEVELOPING INTERACTIVE COMMUNICATION IN DISTANCE LEARNING PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS		
<i>USMONOV RAHIM RAXMONALI O‘GLI</i>	TURLI HUDUDIY SHAROITLARDAGI HAYDOVCHILARNING G‘AZABLANISH DARAJASINING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	PSIXOLOGIYA	136
	СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ОСОБЕННОСТИ УРОВНЯ АГРЕССИВНОСТИ И ГНЕВА ВОДИТЕЛЕЙ В РАЗЛИЧНЫХ РЕГИОНАЛЬНЫХ УСЛОВИЯХ		
	SOCIO-PSYCHOLOGICAL CHARACTERISTICS OF DRIVERS’ ANGER LEVELS IN DIFFERENT REGIONAL CONDITIONS		
<i>RAHIMOVA NAVBAHOR RUSTAMOVNA, OLIMOV TEMUR HASANOVICH</i>	DIFFERENSIAL YONDASHUV ASOSIDA TALABALARDAGI KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	PEDAGOGIKA	141
	СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ НА ОСНОВЕ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО ПОДХОДА		
	IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS’ COMMUNICATIVE COMPETENCE BASED ON A DIFFERENTIATED APPROACH		

<i>TURDIKULOVA EBZOXOH ERKINJOH KIZI</i>	BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA CHET TILIDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA INTERNET TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	PEDAGOGIKA	147
	ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРНЕТ-ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ИНОЯЗЫЧНОЙ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ		
	THE EFFECTIVENESS OF USING INTERNET TECHNOLOGIES IN DEVELOPING FOREIGN LANGUAGE COMMUNICATIVE COMPETENCE IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS		
<i>RASHIDOV ABDURASHID MURODULLAYEVICH</i>	PSIXOLOGIK METODLAR YORDAMIDA YOSHLARDA VATAN HIMOYASI RUHINI TARBIYALASH	PSIXOLOGIYA	152
	ФОРМИРОВАНИЕ У МОЛОДЕЖИ ДУХА ЗАЩИТЫ РОДИНЫ С ПОМОЩЬЮ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ МЕТОДОВ		
	CULTIVATING THE SPIRIT OF DEFENDING THE MOTHERLAND AMONG YOUTH THROUGH PSYCHOLOGICAL METHODS		
<i>ABSAMATOVA GULKHAYO BAKHODIROVNA</i>	DUNYO IMO-ISHORA TILI FOYDALANUVCHILARI VA TARJIMA NAZARIYASI	PEDAGOGIKA	156
	МИР ПОЛЬЗОВАТЕЛЕЙ ЖЕСТОВОГО ЯЗЫКА И ТЕОРИЯ ПЕРЕВОДА		
	THE WORLD OF SIGN LANGUAGE SPEAKERS AND TRANSLATION THEORY		
<i>IZZATOV SHERZOD SAMAD O'G'LI</i>	YOSHLARDA PSIXOLOGIK IMMUNITETNI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI VA AMALIY MEKANIZMLARI	PSIXOLOGIYA	162
	НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА У МОЛОДЕЖИ		
	SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS AND PRACTICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING PSYCHOLOGICAL IMMUNITY IN YOUNG PEOPLE		
<i>KARIMOV SHERZOD ABDURASULOVICH</i>	ICHKI LOKUS NAZORAT VA MOTIVATSION FAOLIYAT XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI	PSIXOLOGIYA	167
	ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВНУТРЕННЕГО ЛОКУСА КОНТРОЛЯ И МОТИВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ		
	A STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF INTERNAL LOCUS OF CONTROL AND MOTIVATIONAL ACTIVITY		
<i>MURATOVA SABOXAT CHORIYEVNA</i>	OILA VA MAKTAB HAMKORLIGIDA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYA BERISH	PEDAGOGIKA	174
	ДУХОВНО-ПРАВСТВЕННОЕ ВОСПИТАНИЕ НА ОСНОВЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В СОТРУДНИЧЕСТВЕ СЕМЬИ И ШКОЛЫ		
	SPIRITUAL AND MORAL EDUCATION BASED ON NATIONAL VALUES IN FAMILY AND SCHOOL COOPERATION		

<i>NIYAZOVA NILUFAR FARXADOVNA</i>	ONKOLOGIK KASALLIKKA CHALINGAN BEMORLARDA EMOTSIONAL BARQARORLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	PSIXOLOGIYA	180
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЭМОЦИОНАЛЬНОЙ УСТОЙЧИВОСТИ У ПАЦИЕНТОВ С ОНКОЛОГИЧЕСКИМИ ЗАБОЛЕВАНИЯМИ		
	PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF EMOTIONAL STABILITY IN PATIENTS WITH ONCOLOGICAL DISEASES		
<i>QALANDAROVA YULDUZ BAHRAMOVNA</i>	PSIXOLOGIK TRENINGLAR ORQALI TALABALARDA PSIXOLOGIK SALOMATLIKNI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI	PSIXOLOGIYA	188
	ЭФФЕКТИВНОСТЬ РАЗВИТИЯ ПСИХОЛОГИЧЕСКОГО ЗДОРОВЬЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ ТРЕНИНГОВ		
	THE EFFECTIVENESS OF DEVELOPING STUDENTS' PSYCHOLOGICAL WELL-BEING THROUGH PSYCHOLOGICAL TRAINING PROGRAMS		
<i>RAHIMOVA NAZOKATXON KASIMDJONOVNA</i>	TALABALARDA IJTIMOY YETUKLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEKANIZMLARI VA TA'LIM SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	PSIXOLOGIYA	192
	ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ РАЗВИТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ ЗРЕЛОСТИ СТУДЕНТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ЭФФЕКТИВНОСТЬ ОБРАЗОВАНИЯ		
	PSYCHOLOGICAL MECHANISMS FOR DEVELOPING STUDENTS' SOCIAL MATURITY AND THEIR IMPACT ON EDUCATIONAL EFFECTIVENESS		
<i>TOIROVA MUNAVVAR MURODULLAYEVNA</i>	O'SMIRLARDA MILLIY O'ZLIKNI ANGLASHNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK ASOSLARI	PSIXOLOGIYA	202
	ПСИХОЛОГО-ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ У ПОДРОСТКОВ		
	PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL FOUNDATIONS OF DEVELOPING NATIONAL IDENTITY IN ADOLESCENTS		



**Karimov Sherzod Abdurasulovich,**  
Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti  
mustaqil tadqiqotchisi

## ICHKI LOKUS NAZORAT VA MOTIVATSION FAOLIYAT XUSUSIYATLARINING O'RGANILISHI

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ichki lokus nazorati va motivatsion faoliyatning nazariy hamda empirik jihatlari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Tadqiqotning metodologik asosini J. Rotterning lokus nazorati nazariyasi, D. MakKlellandning muvaffaqiyat motivatsiyasi konsepsiyasi, J. Atkinsonning kutilma–qiymat modeli hamda E. Desi va R. Rayanning o'zini aniqlash nazariyasi tashkil etadi. Tadqiqotda M. Kubishkinaning "MAC – Motivatsiyaning yo'nalganligini aniqlash" metodikasi yordamida 8- va 10-sinf o'quvchilarining motivatsion yo'nalganligi o'rganildi ( $n=208$ ). Empirik natijalar yuqori sinf o'quvchilarida raqobatga moyillik va maqsadga erishishga intilish ko'rsatkichlari statistik jihatdan ishonchli ravishda yuqoriligini ( $p<0,05$ ), ijtimoiy nufuzga intilish esa yosh omiliga nisbatan barqarorligini ko'rsatdi. Olingan natijalar ichki lokus nazoratining o'quvchilarning mas'uliyat hissi, o'zini boshqarish kompetensiyasi va akademik motivatsiyasini rivojlantirishdagi muhim psixologik omil ekanligini tasdiqlaydi hamda ta'lim jarayonida shaxsga yo'naltirilgan psixologik-pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish uchun ilmiy asos yaratadi.

**Kalit so'zlar:** ichki lokus nazorati, tashqi lokus nazorati, motivatsiya, muvaffaqiyat motivatsiyasi, o'quv motivatsiyasi, motivatsion yo'nalganlik, akademik motivatsiya, o'zini boshqarish, shaxs psixologiyasi, o'quvchilar.

## ИССЛЕДОВАНИЕ ОСОБЕННОСТЕЙ ВНУТРЕННЕГО ЛОКУСА КОНТРОЛЯ И МОТИВАЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ

**Аннотация.** В статье представлены результаты теоретического и эмпирического исследования взаимосвязи внутреннего локуса контроля и мотивационной деятельности личности. Методологическую основу исследования составили теория локуса контроля Дж. Роттера, концепция мотивации достижения Д. МакКлееланда, модель «ожидание–ценность» Дж. Аткинсона, а также теория самодетерминации Э. Деси и Р. Райана. Эмпирическая часть исследования проведена с использованием методики М. Кубышкиной «MAC – определение направленности мотивации» среди учащихся 8-х и 10-х классов ( $n=208$ ). Полученные результаты свидетельствуют о статистически значимом повышении стремления к достижению цели и конкурентной направленности у учащихся старших классов ( $p<0,05$ ), тогда как стремление к социальному престижу сохраняет относительную стабильность независимо от возраста. Результаты подтверждают, что внутренний локус контроля является важным психологическим фактором формирования учебной мотивации, ответственности, саморегуляции и успешности учебной деятельности. Полученные выводы могут быть использованы при разработке современных психолого-педагогических технологий развития личности обучающихся.

**Ключевые слова:** внутренний локус контроля, внешний локус контроля, мотивация, мотивация достижения, учебная мотивация, направленность мотивации, академическая мотивация, саморегуляция, психология личности, учащиеся.

## A STUDY OF THE CHARACTERISTICS OF INTERNAL LOCUS OF CONTROL AND MOTIVATIONAL ACTIVITY

**Abstract.** This article examines the theoretical and empirical relationship between internal locus of control and motivational activity from a psychological perspective. The methodological framework is based on Rotter's locus of control theory, McClelland's achievement motivation



theory, Atkinson's expectancy-value model, and Deci and Ryan's Self-Determination Theory. An empirical study involving 208 eighth- and tenth-grade students was conducted using M. Kubishkina's "MAC – Motivation Orientation Assessment" methodology. The findings revealed statistically significant differences in achievement orientation and competitiveness, with tenth-grade students demonstrating higher levels of goal-directed motivation and competitive orientation ( $p < 0.05$ ). In contrast, the tendency toward social prestige remained relatively stable across age groups. The results indicate that an internal locus of control serves as an important psychological determinant of academic motivation, self-regulation, personal responsibility, and learning effectiveness. The study provides a scientific basis for developing learner-centered psychological and pedagogical approaches aimed at enhancing students' motivational resources and educational outcomes.

**Key words:** internal locus of control, external locus of control, motivation, achievement motivation, academic motivation, motivational orientation, self-regulation, personality psychology, students, educational psychology.

**Kirish.** Inson hayoti uzluksiz faoliyat jarayonidan iborat bo'lib, bu jarayon nafaqat turli xildagi amaliy harakatlar va axborot almashinuvlarini, balki psixik faollkning ichki ko'rinishlarini ham qamrab oladi. Mazkur ichki faollikka idrok, tafakkur, hissiyot va tasavvurlar kabi kechinmalar kiradi. Ushbu jarayonlar tashqi kuzatuv uchun bevosita ochiq emas hamda atrof-muhitda darhol seziladigan o'zgarishlarni yuzaga keltirmaydi. Psixik faoliyat shakllari inson ongida paydo bo'ladigan tush va xayollardagi obrazli tasavvurlardan tortib (Klinger, 1971), oldindan rejalashtirilgan va ixtiyoriy ravishda amalga oshiriladigan ongli harakatlarga bo'lgan keng diapazonda namoyon bo'ladi.

**Asosiy qism.** Mazkur tadqiqotning metodologik asoslari ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsining psixologik imkoniyatlari va ichki resurslarini chuqur ilmiy tahlil qilish zaruratidan kelib chiqib shakllantirildi. Tadqiqotning metodologik asosi sifatida shaxs psixologiyasi, motivatsiya nazariyalari, ijtimoiy ta'lim nazariyalari hamda kognitiv psixologiya yo'nalishlariga asoslanadi. Zamonaviy ta'lim muhitida o'quvchilarning o'quv motivatsiyasi, mas'uliyat hissi va akademik muvaffaqiyatini ta'minlovchi psixologik omillarni aniqlash tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, lokus nazorati fenomenining o'quvchilarning o'z faoliyatiga munosabati, qaror qabul qilish jarayoni va o'quv natijalariga ta'siri metodologik yondashuvlarni tizimli va ilmiy asosda qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Shu bois, tadqiqotda shaxsga yo'naltirilgan, tizimli va kompetensiyaviy yondashuvlar uyg'unligida ishlab chiqilgan metodologik asoslar mavzuning ilmiy va amaliy dolzarbligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning metodologik asosi inson faoliyatining motivatsion sohasini o'rganishga qaratilgan yetakchi psixologik nazariyalar tizimiga tayanadi. Xususan, D. MakKlelland tomonidan ishlab chiqilgan muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi konsepsiyasi, J. Atkinsonning kutilma–qiymat (expectancy–value) modeli, shuningdek, J. Rotterning ichki va tashqi lokus nazorati nazariyasi tadqiqotning asosiy konseptual negizini tashkil etadi. Ushbu nazariy yondashuvlar shaxs faoliyatining muvaffaqiyatga yo'naltirilganligini, maqsadga intilish jarayonida kognitiv baholashlar va o'zini boshqarish mexanizmlarining rolini izohlash imkonini beradi.

Shu bilan birga, tadqiqotda motivatsiyaning ichki manbalarini chuqurroq ochib berishda G. Myurrey, A. Bandura hamda E. Desi va R. Rayanning o'zini aniqlash nazariyasi (Self-Determination Theory) doirasidagi qarashlari muhim metodologik tayanch sifatida qo'llanildi. Mazkur yondashuvlar shaxs xulq-atvorining avtonomligi, ichki motivlar ustuvorligi va o'z-o'zini boshqarish jarayonlarining psixologik mexanizmlarini izohlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, faoliyat nazariyasi hamda motivatsion va kognitiv jarayonlarning integratsiyasiga asoslangan tamoyillar qo'llanildi. Bunda muvaffaqiyat motivatsiyasining shakllanishi, mustahkamlanishi va dinamik o'zgarishi shaxsning bilish jarayonlari, o'zini anglash darajasi va ijtimoiy tajribasi bilan o'zaro bog'liqlikda tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv motivatsiyani statik xususiyat sifatida emas, balki faoliyat va muhit bilan o'zaro ta'sirda rivojlanib boruvchi psixologik tizim sifatida ko'rib chiqishni nazarda tutadi.



Zamonaviy motivatsiya psixologiyasida shaxsga xos bo'lgan bunday qadriyatlarga asoslangan dispoziitsiyalar yoki moyilliklar **“motivlar”** tushunchasi bilan ifodalanadi. Motivlarni tasniflash uchun yetarlicha yuqori darajadagi umumlashtirishga murojaat qilish talab etiladi. Har bir motiv o'ziga xos bo'lgan harakat maqsadlarining mazmuniy sinfi bilan farqlanadi. Ushbu sinflarni umumiy holda “yutuqqa erishish”, “yordam ko'rsatish”, “hokimiyat” yoki “tajovuzkorlik” kabi kategoriyalar orqali tavsiflash mumkin.

Shu bilan birga, bunday maqsadlarning har bir mazmuniy sinfi aniqroq belgilanishi lozim. Masalan, “yutuqqa erishish motivi” asosan muvaffaqiyat mezonlari bilan taqqoslashga yo'naltirilgan maqsadlar bilan bog'liq bo'ladi. Ya'ni bunda shaxs o'z faoliyati natijasini muayyan standartlar yoki baholash mezonlari asosida solishtirishga intiladi. Aniq, real hayotda qo'yiladigan maqsadlarga kelsak, mazkur mazmuniy sinflar doirasiga nihoyatda xilma-xil va son-sanoqsiz maqsadlar kiradi.

Shubhasiz, turli tarixiy davrlar, madaniyatlar hamda alohida shaxslar o'zlariga xos bo'lgan faoliyat turlari va yutuqqa intilish bilan motivatsiyalangan xatti-harakatlari jihatidan keskin farqlanishi mumkin. Ayrim hollarda ular o'rtasida yuzaki qaraganda hech qanday umumiylik ko'rinmasligi ehtimoldan xoli emas. Biroq shunga qaramay, ushbu davrlar, madaniyatlar va individlarga xos barcha faoliyat turlari mazmunan bir xil - ya'ni yutuqqa erishishga qaratilgan maqsadlar sinfiga mansub bo'lishi mumkin.[2]

Julian J. Rotter o'zining ijtimoiy ta'lim nazariyasini shakllantirgan davrda klinik psixologiyada hukmron bo'lgan asosiy paradigma Freydning psixoanalitik yondashuvi edi. Ushbu yondashuv inson xulq-atvorini asosan ong osti instinktiv impulslar va erta bolalik tajribalari bilan izohlab, shaxsni ko'proq passiv va ichki biologik kuchlarga bo'ysunuvchi mavjudot sifatida talqin qilgan. Psixologik muammolarni bartaraf etish jarayoni esa uzoq davom etuvchi retrospektiv tahlilga asoslangan edi. Shu bilan birga, o'sha davrdagi ta'lim va bixevioristik yondashuvlarda ham haydovchilik (drayvga asoslangan) nazariyalar ustunlik qilgan bo'lib, unda inson xatti-harakati fiziologik ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan majburiy impulslar orqali tushuntirilgan.

Rotter ushbu biryoqlama yondashuvlardan voz kechib, psixologik nazariya inson motivatsiyasini tushuntirib bera oladigan empirik va ratsional asosga ega bo'lishi kerak, degan fikrni ilgari surdi. U instinkt va drayvlarga tayanuvchi tushuntirishlar o'rniga xulq-atvorni shakllantiruvchi asosiy mexanizm sifatida “ta'sir qonuni”ni tanladi. Ushbu qonunga ko'ra, insonlar ijobiy natijalarga olib keluvchi xatti-harakatlarni takrorlashga, salbiy yoki yoqimsiz oqibatlarga olib keluvchi xatti-harakatlardan esa qochishga intiladilar. Shu tariqa Rotter bixevioristik kuchaytirish g'oyalarini shaxsning kognitiv baholashlari bilan uyg'unlashtirib, xulq-atvorni tushuntirishda integrativ yondashuvni ishlab chiqdi.[3]

Rotter nazariyasining eng keng tarqalgan va ta'sirchan g'oyalaridan biri - nazorat lokusi konsepsiyasidir. Nazorat lokusi shaxsning hayotida sodir bo'ladigan hodisalar va natijalar ustidan nazorat qayerda joylashganligi haqidagi umumiy, vaziyatlararo e'tiqodlarini ifodalaydi. Ushbu e'tiqodlar kontinuum shaklida qaraladi: shaxslar juda ichki yo'nalishdan juda tashqi yo'nalishgacha bo'lgan oraliqda joylashadi.

Ichki nazorat lokusiga ega bo'lgan shaxslar muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizlik uchun mas'uliyatni asosan o'z zimmasiga oladilar. Ular hayotiy natijalar shaxsiy sa'y-harakat, intizom va qobiliyat bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar. Aksincha, tashqi nazorat lokusiga ega shaxslar kuchaytirishlar asosan omad, tasodif yoki “kuchli boshqalar” tomonidan nazorat qilinadi, deb ishonadilar va o'z harakatlarining ta'sirini cheklangan deb baholaydilar.[5]

Rotter nazorat lokusini qat'iy tipologiya sifatida emas, balki davomiylik (kontinuum) sifatida talqin qilish zarurligini alohida ta'kidlaydi. Nazorat lokusi umumiy kutish bo'lgani sababli, u shaxs xatti-harakatini ko'plab vaziyatlarda bashorat qilish imkonini beradi, biroq ayrim maxsus holatlarda odatda tashqi lokusga ega bo'lgan shaxs ham ichki lokusga xos xulq-atvorni namoyon qilishi mumkin. Bu holat shaxsning avvalgi o'rganish tajribasi bilan bog'liq bo'lib, muayyan vaziyatda u kuchaytirish ustidan nazorat mavjudligini anglagan bo'lishi mumkin. Shu tariqa, shaxsni tushunishda inson va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'ladi.



Ichki nazorat lokusiga ega shaxslar, odatda, quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi: ular o'z muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklari uchun mas'uliyatni his qiladilar; faolroq va tashabbuskor bo'ladilar; shaxsiy qoniqish va o'z-o'zini samarali boshqarish darajasi yuqori bo'ladi. Masalan, imtihondan muvaffaqiyatli o'tgan ichki yo'nalishga ega talaba bu natijani o'zining puxta tayyorgarligi va intizomi bilan izohlaydi. Biroq bunday yondashuv shaxs nazoratidan tashqaridagi omillar mavjud bo'lgan vaziyatlarda ortiqcha stress, aybdorlik hissi yoki o'ziga nisbatan haddan tashqari talabchanlikni ham keltirib chiqarishi mumkin.[8]

Tashqi lokus nazorat shaxsning hayotida sodir bo'layotgan voqealar va natijalar ustidan nazorat asosan uning ixtiyoridan tashqaridagi kuchlarga bog'liq, degan e'tiqodni ifodalaydi. Bunday shaxslar muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklarni omad, tasodif, vaziyat sharoiti yoki boshqa insonlarning ta'siri bilan izohlashga moyil bo'ladilar. Tashqi nazorat lokusiga ega bo'lgan shaxslarga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: ular muvaffaqiyatsizliklari uchun nisbatan kamroq shaxsiy javobgarlikni his qiladilar; qiyinchiliklarga nisbatan passivroq munosabat namoyon etishlari mumkin; o'z nazoratidan tashqarida bo'lgan vaziyatlarda esa ichki lokusga ega shaxslarga qaraganda kamroq psixologik zo'riqish va stressni boshdan kechiradilar.

Masalan, imtihonda muvaffaqiyatsizlikka uchragan tashqi lokusga ega talaba bu holatni ko'pincha imtihon savollarining murakkabligi, baholovchining qat'iyiligi yoki tasodifiy omillar bilan izohlaydi. Shu bilan birga, psixologik tadqiqotlarda keng kuzatiladigan hodisalardan biri shuki, muvaffaqiyatsizliklar tashqi omillarga yuklanadi, muvaffaqiyat esa shaxs tomonidan ichki omillar - o'z qobiliyati va sa'y-harakatlari bilan bog'lab talqin qilinadi. Ushbu tarafkashlik (atributsion og'ish) ayniqsa tashqi nazorat lokusiga moyil bo'lgan shaxslar orasida yaqqol namoyon bo'ladi. Bu holat qisman hodisalarning affektiv valentligi bilan izohlanadi: muvaffaqiyatsizliklar emotsional jihatdan og'irroq kechiriladi, muvaffaqiyatlar esa ijobiy his-tuyg'ularni uyg'otadi.[6]

Ijtimoiy ta'lim nazariyasining markaziy g'oyasi shundan iboratki, shaxs va muhit o'zaro ajralmas tizimni tashkil etadi. Shaxsni atrof-muhitdan mustaqil holda tushunish mumkin emas, xulq-atvorni esa faqat tashqi stimullarga berilgan avtomatik javob sifatida talqin qilish yetarli emas. Inson xatti-harakati uning avvalgi tajribasi, o'rganilgan ijtimoiy bilimlari, subyektiv kutilmalari va muayyan vaziyatni qanday idrok etishiga bog'liq holda shakllanadi. Shu nuqtai nazardan, Rotter shaxsiyatni turli vaziyatlarda muayyan tarzda javob berishga tayyorlikni belgilovchi nisbatan barqaror psixologik potentsiallar majmui sifatida ta'riflaydi.

Ta'lim jarayonida talabaning faoliyati, avvalo, ongli faoliyat sifatida namoyon bo'ladi. Bu faoliyat tarkibiga timsollar, munosabatlar, motivlar, qiziqishlar, bilimlar, ko'nikmalar va malakalar kiradi. Talabada ongli faoliyatning faollashuvi o'qish motivlarining shakllanishi va namoyon bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu jihatdan inson psixikasining ijtimoiy-tarixiy xususiyatlari tamoyili, determinizm tamoyili hamda ong va faoliyat birligi tamoyili shaxs muammosini bilish va hissiy sohalarning o'zaro uyg'unligida o'rganishda muhim metodologik ahamiyat kasb etadi.

S.L. Rubinshteyn tomonidan asoslab berilgan ong va faoliyat birligi tamoyiliga ko'ra, inson o'z faoliyatini o'zgartirish orqali o'z tabiatini ham o'zgartiradi. Mazkur tamoyil inson faoliyati va ongi o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi: faoliyat ongni shakllantiradi, uning intellektual jarayonlari va xususiyatlarini belgilaydi, ong esa o'z navbatida faoliyatni tartibga soluvchi va uning samarali amalga oshirilishini ta'minlovchi shart sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv doirasida olib borilgan tadqiqotimiz shuni ko'rsatadiki, shaxsdagi motivlar tizimi uning faoliyatdagi xatti-harakati bilan chambarchas bog'liqdir. Demak, ta'lim faoliyati maqsadga muvofiq va to'g'ri tashkil etilmas ekan, o'qish motivlarining rivojlanishiga erishish qiyinlashadi.

Tadqiqotning metodologik asoslaridan yana biri - determinizm tamoyili hisoblanadi. Ushbu tamoyil S.L. Rubinshteyn tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy jarayonlarning obyektiv qonuniyatlari yagona yaxlit tizim sifatida qaraladi. Ya'ni tashqi muhit omillaridagi o'zgarishlar shaxsning ichki psixologik xususiyatlari va motivatsion tuzilmasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayonda shaxsning moyilliklari, qiziqishlari, individual xususiyatlari hamda motivlari tashqi ta'sirlar o'zgarishi natijasida ma'lum darajada transformatsiyaga uchraydi.



Mazkur tamoyil tadqiqotimizda talabalarning kasbiy bilimlarni o'zlashtirish jarayoni ularning o'qishga bo'lgan motivlarining shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.

Tadqiqotimizni yana bir metodologik asosga tayangan holda aytadigan bo'lsak, amerikalik psixolog D.Hirota lokus nazorat tushunchasining shaxs faoliyati obibatlari bilan bevosita bog'liqlini aytib o'tib, uning fikricha, ichki lokus nazoratga ega shaxslar o'zlarining muvaffaqiyat va muvaffaqiyatsizliklariga nisbatan mas'uliyatni to'liq o'z zimmlariga oladilar bu esa ularda faoliyat samaradorligini oshirishga yordam berib, ta'lim jarayonida bunday shaxslar qiyinchiliklarga bardosh berib, mustaqil ravishda muammolarnihal qilishga intiladilar, bu ularda kuchli o'quv motivatsiyasini shakllanishiga yordam beradi. Tashqi lokus nazoratga ega shaxslarda esa muvaffaqiyatsizliklar ko'pincha tashqi omillarga bog'lanib, o'z qobiliyatleri, kuchlariga bo'lgan ishonchning pasayishiga olib kelishi mumkin. Bu holat motivatsiyaning susayichi va ta'lim jarayonidagi aktivlikni pasayishiga olib keladi.

Olimning fikriga asoslarning o'quv muassasalarida o'quvchilarning ichki lokus nazoratini rivojlantirishga xizmat qiluvchi psixologik treninglar, reklektiv amaliyotlar va individual konsultatsiyalarni tashkil etish orqali o'quvchilarda o'z kuchiga bo'lgan ishonchni ortishi, o'quv va boshqa faoliyatlarga nisbatan mas'uliyat hissini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur konsepsiya o'quvchilarni akademik faoliyatdagi muvaffaqiyatini ta'minlashga xizmat qilib, bilim va ko'nikmalarini boshqarish hamda ta'lim muhitidagi umumiy natijadorlikni yaxshilanishiga yordam beradi. Bizning ilmiy gipotezalarimiz ham Hirotaning ilmiy-nazariy qarashlari milliy ta'lim tizimimizda o'rganishga qaratilgan bo'lib, ichki lokus nazoratga ega o'quvchilar mustaqil qaror qabul qilish va yuqori darajadagi akademik maqsadlar qo'ya olishligi, tashqi lokus nazoratga ega o'quvchilar esa ko'proq bunday vaziyatda tashqi omillarga tayanib ish tutish, muvaffaqiyatsizliklarga uchraganida odatda, hech qachon aydini o'zidan qidirmasdan, hamma muammoni boshqalarga yuklash istaklari ustunlik qiladi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot doirasida o'quvchilarning motivatsion yo'nalganligini aniqlash maqsadida M. Kubishkina tomonidan ishlab chiqilgan "MAC - Motivatsiyaning yo'nalganligini aniqlash" metodikasi tanlandi. Mazkur metodika shaxsning maqsadga erishishga intilishi, raqobat sharoitida faollik ko'rsatish moyilligi hamda ijtimoiy nufuzga erishishga bo'lgan ehtiyoj darajasini kompleks baholash imkonini beruvchi diagnostik vosita hisoblanadi.

Shu tariqa, "MAC" metodikasi yordamida olingan natijalar o'quvchilarning motivatsion yo'nalganligini chuqur tahlil qilish, ta'lim jarayonida muvaffaqiyatga erishishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash hamda shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

1-jadval

**M. Kubishkina tomonidan ishlab chiqilgan "MAC - Motivatsiyaning yo'nalganligini aniqlash" metodikasi natijalari, n=208**

Motivatsiyaning yo'nalganligi	8-sinf (n=97)		10-sinf (n=111)		t
	M	S	M	S	
Ijtimoiy nufuzga intilish	4,50	1,01	4,65	1,02	0,14
Raqobatga moyillik	5,16	1,11	6,74	1,20	-1,75*
Maqsadga erishishga intilish	5,30	1,12	6,93	1,22	-1,80*

Izoh: \* $p \leq 0,05$ ; \*\* $p \leq 0,01$

M – O'rtacha arifmetik qiymat, S – standart og'ish, t – statistik farq ko'rsatkichi




Ushbu metodika asosida o'tkazilgan empirik tadqiqot natijalarini tahlil qilish jarayonida 8- va 10-sinf o'quvchilari o'rtasida motivatsiyaning yo'nalganligi bo'yicha statistik jihatdan ahamiyatli tafovutlar mavjudligi aniqlandi. Aniqlangan farqlar o'quvchilarning yosh va ta'lim bosqichiga bog'liq holda motivatsion tuzilmasida sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlar yuz berayotganini ko'rsatadi.

Mazkur statistik natijalar o'quvchilarning o'quv faoliyatidagi motivatsion ustuvorliklarini aniqlash, ularning muvaffaqiyatga erishish strategiyalari va raqobatga munosabatini tahlil qilish maqsadida qo'llanildi. Xususan, yuqori sinf o'quvchilarida maqsadga yo'naltirilganlik, ijtimoiy faollik va natijaga mas'uliyat bilan yondashish tendensiyalari kuchayib borayotgani kuzatildi. Bu holat ularning shaxsiy tajribasi kengayishi, o'zini anglash darajasining ortishi hamda o'quv faoliyatida mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarining shakllanishi bilan izohlanadi.

Olingan empirik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 8- va 10-sinf o'quvchilari o'rtasida motivatsiyaning yo'nalganligi tarkibida muhim farqlar mavjud. Xususan, «raqobatga moyillik» ( $t=-1,75$ ;  $p\leq 0,05$ ) hamda «maqsadga erishishga intilish» ( $t=-1,80$ ;  $p\leq 0,05$ ) ko'rsatkichlari bo'yicha aniqlangan statistik ahamiyatli tafovutlar 10-sinf o'quvchilarida ushbu motivatsion omillar yanada barqaror va yuqori darajada shakllanganini anglatadi.

### 1-rasm. M. Kubishkina tomonidan ishlab chiqilgan «MAC - Motivatsiyaning yo'nalganligini aniqlash» metodikasi natijalarining ifodalanishi

Mazkur natijalar yosh va ta'lim bosqichining ortishi bilan o'quvchilarning motivatsion tuzilmasida sifat o'zgarishlari yuz berishini tasdiqlaydi. 10-sinf o'quvchilari, odatda, kelajak kasbiy yo'nalishini aniqlash, yakuniy baholash tizimiga yaqinlashish va ijtimoiy mas'uliyatning



kuchayishi sababli o'z faoliyatiga nisbatan ongliroq va maqsadga yo'naltirilgan yondashuvni namoyon etadilar. Raqobatga moyillikning ortishi ularda natijaga erishish istagi, ijtimoiy taqqoslash ehtiyoji va o'z salohiyatini sinovdan o'tkazishga tayyorlik bilan bog'liq bo'lsa, maqsadga erishishga intilish ko'rsatkichining yuqoriligi uzoq muddatli rejalashtirish va o'zini boshqarish ko'nikmalarining shakllanayotganidan dalolat beradi.

8-sinf o'quvchilarida esa mazkur omillar nisbatan pastroq darajada namoyon bo'lishi o'smirlarning boshlang'ich bosqichiga xos psixologik xususiyatlar – barqaror hayotiy maqsadlarning hali to'liq shakllanmaganligi, irodaviy sifatning rivojlanish jarayonida ekanligi hamda ijtimoiy identifikatsiyaning davom etishi bilan izohlanadi. Bu yosh davrida motivatsiya ko'proq situativ va tashqi omillarga bog'liq bo'lishi mumkin.

Umuman olganda, aniqlangan statistik farqlar motivatsiyaning yo'nalganligi yoshga qarab rivojlanib borishini ko'rsatadi. Yuqori sinflarda o'quvchilarning raqobatga tayyorligi va maqsadga yo'naltirilganligi ortishi ta'lim jarayonida ichki motivatsiya elementlarining mustahkamlanayotganini bildiradi. Ushbu natijalar ta'lim jarayonini yosh xususiyatlariga mos



ravishda tashkil etish, quyi sinflarda maqsad qo'yish va o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

«Ijtimoiy nufuzga intilish» omili bo'yicha o'tkazilgan statistik tahlil natijalari 8- va 10-sinf o'quvchilari o'rtasida ahamiyatli tafovut mavjud emasligini ko'rsatdi ( $p \geq 0,05$ ). Bu holat mazkur motivatsion komponent yosh omiliga nisbatan barqarorroq xarakterga ega ekanini anglatadi.

**Xulosa.** Aniqlangan natijalarni psixologik jihatdan izohlash mumkin, ijtimoiy nufuzga intilish o'smirlik davrining umumiy rivojlanish xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, u faqat sinf bosqichiga emas, balki tengdoshlar guruhi bilan identifikatsiya, o'zini ijtimoiy jihatdan tasdiqlash va maqomga ehtiyoj kabi omillar bilan belgilanadi. Shu sababli, 8- va 10-sinf o'quvchilari orasida ushbu ko'rsatkichning nisbatan bir xil darajada saqlanib qolishi tabiiy psixologik jarayon sifatida talqin qilinadi.

Mazkur natija shuni ko'rsatadiki, yosh oshgani bilan raqobatga moyillik va maqsadga yo'naltirilganlik dinamik rivojlanishi mumkin, biroq ijtimoiy nufuzga bo'lgan ehtiyoj o'smirlikning butun davri davomida nisbatan barqaror motiv sifatida namoyon bo'ladi. Bu esa ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiy maqomga intilish ehtiyojini hisobga olgan holda, ularni konstruktiv ijtimoiy faollikka yo'naltirish zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot ma'lumotlari ichki lokus nazoratga ega o'quvchilar bilim olish, shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonida ichki motivatsiya manbalariga tayangan holda faoliyat yuritishini tasdiqladi. Aksincha, tashqi lokus nazorat ustun bo'lgan o'quvchilarda o'quv faoliyati ko'proq baho, ijtimoiy e'tirof yoki tashqi talablar bilan rag'batlantirilishi kuzatildi. Bu holat motivatsiyaning ichki va tashqi regulyatsiya mexanizmlari o'rtasidagi farqni amaliy jihatdan namoyon etdi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.**

1. Rotter J.B. Social Learning and Clinical Psychology. – New York: Prentice-Hall, 1954.
2. Rotter J.B. Generalized expectancies for internal versus external control of reinforcement // Psychological Monographs. – 1966. – Vol. 80, № 1. – P. 1–28.
3. Xaydarov F.I. O'quv faoliyati motivatsiyasi. – T.: Fan, 2005. – 90–105 b.
4. Жўраев Н.С. «Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllantirishning psixologik xususiyatlari»: PhD дис. автореф. – T.: TDPU, 2009. – 134 б.
5. Jumaboyeva M.X. «Talabalarda o'qish motivlari namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari (davlat va xususiy ta'lim muassasalari misolida)»: PhD дис. автореф. – T.: URDU, 2025. – 134 б.
6. Usmonova N.Z. «Talabalarning o'quv motivatsiyasini shakllantirishning psixologik asoslari»: PhD дис. автореф. – T.: TDPU, 2015. – 119 б.
7. Yuldasheva N.Sh. Shaxs irodaviy regulyatsiyasi jarayonida lokus nazoratning o'rni: дис. автореф. – Тошкент, 2024. – 5–18 б.
8. Yuldasheva D.Sh. Talabalarda o'quv motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari: дис. автореф. – Тошкент, 2025. – 58 б.
9. Локус контроля // Социология: Энциклопедия / Сост. А. А. Грицанов, В. Л. Абушенко, Г. М. Евелькин, Г. Н. Соколова, О. В. Терещенко. -Минск: 200

**Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2025-yil 16-aprel kuni № 720072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.**

**“ZAMONAVIY JAMIYAT VA INNOVATSIYALAR”  
ILMIY NAZARIY JURNALI**  
**№ 7-son, 1-qism, 2026**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi,  
Buxoro shahri Alpomish ko‘chasi, 9-uy  
**Elektron manzil:** <https://fanistiqbollari.uz>  
Telegram raqami: +998 (93) 689-80-90

**Zamonaviy jamiyat va innovatsiyalar ilmiy-nazariy jurnal.**  
**Buxoro, 2026. № 7-Son, 1-qism.**